

## ADABIYOTSHUNOSLIKDA FURQAT LIRIKASI VA UNING O'RNI

Usmonov Mansurjon Rahmonovich

Toshkent viloyati Bo'stonliq tumani 30-sonli maktabning ona tili va adabiyot fani  
o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7316996>

**Annotatsiya.** Furqat ongida madhi, erkinligi g'oyalarining yetakchi tamoyiliga ravshan ko'rsatish bilan bir qatorda shoir dunyo qarashidagi, jamiyat rivojlanishi qonuniyatlarini tushunishdagi cheklanganlikni ham ozodlikka orib boruvchi, erkni taminlovchi ijtimoiy tarixiy omillarni payqay olmaganligini ham ko'rsatish jihatidan xarakterlanadi.

**Kalit so'zlar:** Furqat, lirika, o'zbek jurnalisti, ijod, asarlar, badiiylik.

### ЛИРИКА ФУРКАТА И ЕГО МЕСТО В ЛИТЕРАТУРЕ

**Аннотация.** По мнению Фурката, для гимна характерно не только яркое указание ведущего принципа идей свободы, но и то, что поэт не способен замечать ограниченность в своем мировоззрении и понимании законов развития общества, и социальные и исторические факторы, ведущие к свободе и обеспечивающие свободную волю.

**Ключевые слова:** Фуркат, лирика, узбекский журналист, творчество, произведения, артистизм.

### FURQAT LYRICS AND ITS PLACE IN LITERATURE

**Abstract.** In Furqat's mind, the hymn is characterized not only by clearly showing the leading principle of the ideas of freedom, but also by showing the limitations of the poet's world view and understanding of the laws of society's development, as well as his inability to notice the social and historical factors that lead to freedom and ensure free will.

**Key words:** Furqat, lyrics, Uzbek journalist, creativity, works, artistry.

### KIRISH

Furqat o'zbek demokratik adabiyotida gumanistik lirikaning boyishi va rivojlanishiga katta ulush qo'sha olgan shoirdir. Lirika uning ijodida xajm jixatidan xam, mazmun va badiiylik jixatidan xam salmoqli o'rin tutadi. U klassik poeziyamizning gazal, muxammas, musaddas, masnaviy, maktubat, tarji'band va boshqa shakllarida ajoyib va go'zal asarlar yaratdi.

Shoir asarlarining ko'pchiligi muxabbatni tarannum etuvchi gazallardan iborat. U o'z lirikasining mavzui, xarakter va maqsadi xaqida so'z yuritar ekan, quyidagi misralarni yozishga batamom xaqli edi;

Ey muxabbat axli, ramzi ishq faxm aylay desang,

Yozilgan xuni jigardin, Furqat, ash'orimga boq.

Chindan xam shoirning muxabbat tasviriga doir she'rlari dillarni jumbushga keltirib o'ziga asir etadi.

Furqat lirikasida yaratilgan ijobiy qaxramonning eng muxim xususiyati shuki, u xayotni sevadi, xayot go'zalliklaridan lazzatlarishga intiladi. Yor-maxbuba va uning xusnu latofati, noz-qarashlari xaqidagi qo'shiq shu xayot go'zalliklarining timsoli sifatida maydonga keladi. urqat lirik qaxramonning bunday ko'ngil istaklari" shoirning "Baxor ayyomida" sarlavxali gazalida xam o'z ifodasini topgan:

Baxor ayyomida gulgasht etarga bir chaman

*bo'lsa, Qilurga sharxi xol, axli muxabbat ikki tan  
bo'lsa, Bulut qatrafishonu, ruxafzo sabzalar  
xandon, Ariglarning labida sabzavori bir chaman  
bo'lsa Kishi tubiyu navsar, jannatu ruzvonni ne  
qilsun,  
Jaxon ayvonida xosil bu yanglig anjuman bo'lsa. Yoki:  
Ul qaro ko'z ko'zlariga surma bejo tortadur,  
Balki andin daxr eli ortuqcha gavgo  
tortadur. Qoshlari ostida go'yo ikki fatton  
ko'zlari  
Ikki xindu bachchadurkim, yondoshib yotortadur.*

#### **METOD VA METODOLOGIYA**

Furqat poeziyasida tez-tez uchrab turadigan, yuqori maxorat bilan yozilgan bunday she'rlar jo'shqin va optimistik rux bilan bagishlovchi xarakterlarga ega. Zokirjon Furqat tub ma'noda yangi tipdagi ijodkor edi. Uning ijodiy faoliyat doirasi keng bo'lgan. Shoir qadimiy adabiyotimizning eng yaxshi an'alarini izchil ravishda davom ettirish bilan birgalikda badiiy taxlil ko'lamini yangi mavzu, yangi goya, yangi asarlarida, publitsistikasida, jurnalistlik faoliyatida juda yaqqol ko'rinadi.

Furqat birinchi o'zbek jurnalistidir. Uning Toshkentda yashagan davrida "Turkiston viloyati gazetasi" redaksiyasida ishlaganligi rad qilib bo'lmas haqiqatdir. Furqat bu davrda va bundan keyin chet ellarda sayoxat qilib yurgan kezlari,

Yor'kentda yashagan vaqtida xam o'z she'rlari, xabarlar va publitsistik maqolalarini gazeta redaksiyasiga yuborib turdi.

Furqat gazeta saxifasida bosilgan maqolalarida otashin do'sti, tajavuzkor imperialistlarning murosasiz dushmani sifatida ko'z o'ngimizda gavdalanib turadi. Bu jixatdan shoirning "Ho'qandlik Zokirjon naql qilib yozgan xabari" sarlavxali maqolasi va "Rus askarlari ta'rifida" she'ri diqqatga sazovordir.

Furqat o'zining "Rus askarlari ta'rifida" she'rini rus-yapon urushi" munosabati bilan imperialistik mamlakatlarning, ayniqsa, ingliz imperialistlarining rus xalqiga nisbatan uyushtirgan igvo va Bo'xtonlariga javoban yozgan edi. Bu she'rning muqaddimasida shoir quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Xablul matin" va "Pesai axbor" nom Hindiston gazetlarida rusiya davlatining Yapon birla qilgan muxorabalari xususida, O'rusiya askari borasida aksar kinoyamiz so'zlarni yozadur... Lekin mazmunan diqqat birla muloxaza qilganda kinoya va xasadamiz ma'nilar ma'lum bo'ladi? Ingliz mustamlakachilari nazorati ostida Hindistonda chiqayotgan gazetalar rus-yapon urushida rus qo'shinining maglubiyatga uchrashini dastak qilib olib, rus xalqi sha'niga turli tuxmatlar yogdirishi jaxon jamoatchiligini adashtirar edi. Shuning uchun Furqat rus xalqi va uning jasorati to'grisida xaq gapni tiklash maqsadida ingliz gazetalariga javob yozishni zarur deb xisobladi.

Furqat ijodining badiiy-estetik printsiplarini r-zm tashkil etadi. Furqat r-zm uchun ijobiy idealni ilgari surish va optimizm xarakterlidir.

Furqat ijodida tanqidiy xarakterga ega bo'lgan asarlardan ko'ra, ijobiy goyani tasdiqlovchi, kuylovchi asarlar ustundir. U jixatdan Furqat boshqa demokrat shoirlardan ajralib turadi. Muqimiy, Zavqiy kabi demokrat shoirlar ijodida satira

elementi ustun bo'lib, ular realizm tanqidiy xarakterga ega bo'lsa, Furqatda ijobiy idealni kuylash ustundir.

#### **TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA**

Furqat badiiy maxorat cho'qqilarini egallashda Sharq poeziyasining boy xazinasidan, o'tmishning ulug' san'atkorlaridan barakali foydalandi. Shoirning ulug' Alisher Navoiyga zo'r muxabbat va ixlos bilan qaragan, xamda uning ijodiy chashmasidan baxramand bo'lgani ma'lum. Furqat she'rlari ichida Navoiy gazallariga yozilgan muxammaslar ko'p bo'lganidek, Alisher Navoiy uslubi va manerasida yozilgan she'rlar-naziralar xam ancha uchraydi. Masalan, Furqat Navoiyning:

*Ko'nglim o'rtansin agar gayriga parvo aylasa Har ko'ngil kim, sening ishqingni paydo aylasa.* Bayti bilan boshlanuvchi mashxur gazalining vazni, qofiyasi, radifi va boshqa badiiy xususiyatlarini saqlagan xolda quyidagi nazirani yaratdi:

*Ko'r bo'lsin ko'zlarimkim, o'zgacha solsam  
nazar, Jonga o't tushsun agar sendin bo'lak yor  
aylasam. Ham ko'ngil yuz pora bo'lsin, mayl  
qilsa o'zgaga, Til kesilsin o'zgaga bir xarf  
guftor aylasam. Jondin ayrilsun tanu, yo bir  
yo'li sinsin ayog, Xayr kuyin bir qadam xar saro  
raftor aylasam.*

Furqatning dashtida men labtashna mundog oxkim, Demading xargiz ani shodobi diydor aylasam. Furqat she'rlarida Sharq poeziyasining ulkan namoyandasi Fuzuliy nomi tez-tez tilga olinadi va unga naziralar yozaladi, muxammaslar boglanadi.

Bu viloyatlar maqomi boshqadur, emdi qani – Suxbatingizda dushanba gijjaku setorlar.

*Aylar erdi gox Farzinxon "Suvora"  
mashqini Yaxshi savt ila Fuzuliydin o'qib  
ashgorlar.*

Furqat lirikasida klassik poeziyamizga xos bo'lgan xamma she'riy shakllarning namunalari-gazallar, muxamaslar, tarji'bandlar, masnaviylar va boshqalar uchraydi. Furqat mavjud she'riy shakllardan foydalanish bilan birga, adabiyotimizda yangi she'riy shakllar yaratishga xam intiladi. Bu jixatdan "Lo'li va echki", "Muazzam Chinu rus" to'rtliklari xarakterlidir. To'rtliklar usulida yozilgan bu mustaqil she'rlar o'z shakli va mazmuni bilan adabiyotimizda yangi xodisa bo'lib, rus adabiyotidagi epigrammalarni eslatadi. Furqat lirikasida ajoyib o'xshatishlar, original istiora, majozlar va xarakterli tashbexlar ko'p uchraydi.

#### **XULOSA**

Zokirjon Furqatning ma'rifatparvarlik ruxidagi asarlarida davrning bosh masalalaridan biri-Rossiyaga, rus xalqiga munosabat masalasi, o'lkaning Rossiya sostaviga qo'shib olinishini baxolash masalasi chuqur xalqchillik pozitsiyasidan goyaviy etuklik va katta zakovat bilan xalq etiladi. Reaktsion guruxlar, feodal tuzumi maddoxlari, din Xomiylariga zid o'laroq, demokrat shoir Rossiyaga qo'shib olinishni ma'qulladi, uning chorizm va rus burjuaziyasi ish-ixtiyoridan tashqari bo'lmish ob'ektiv ijobiy oqibatlarini ko'rди, faxm etdi, o'zbek xalqining kelajagi, taqdiri, zamonaviy taraqqiyotga erishuvi

faqat Rossiya va rus xalqi bilan xamkorlik va do'stlashuvda ekanligini o'z davrining ilgor farzandi sifatida tushundi. Shubxasiz, shoir bunda ma'lum evolyutsiya jarayonini bosib o'tdi.

#### **REFERENCES**

1. O'zbek liriki shoiri – Furqat
2. O'zbek milliy adabiyot insklopediyasi
3. Furqat hayoti va ijodi – Nurilla Jabbor